



ILK JADID DRAMALARIDA ESTETIK IDEALNING NAMOYON BO‘LISHI: BEHBUDIY IJODIDA

Usmonjonova Sevinch Akramjon qizi
Namangan davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti 1-kurs magistranti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada ilk jadid taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan Mahmudho‘ja Behbudiy ijodidagi estetik idealning namoyon bo‘lishi, estetik ideali zamon va jamiyat ehtiyojiga qarab o‘zgarib, barqarorlashi yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *Mahmudho‘ja Behbudiy, estetik ideal, ideal zamon, ma‘rifatli shaxs, „Padarkush“ dramasi*

Abstract. *This article examines the manifestation of the aesthetic ideal in the works of Mahmud Khoja Behbudiy, who made a great contribution to the early development of Jadidism, as well as how this aesthetic ideal changes and becomes more stable depending on the needs of the time and society.*

Keywords: *Mahmud Khoja Behbudiy, aesthetic ideal, ideal era, enlightened individual, Padarkush*

Аннотация. *В данной статье рассматривается проявление эстетического идеала в творчестве Махмудходжи Бехбуди, внесшего большой вклад в раннее развитие джадидизма, а также то, как этот эстетический идеал изменяется и стабилизируется в зависимости от потребностей времени и общества.*

Ключевые слова: *Махмудходжа Бехбуди, эстетический идеал, идеальное время, просвещённая личность, драма «Падаркуш».*



Dastlabki dramatik asarlarda ham ma‘rifat va jaholat, ilm va ilmsizlik masalasidan bahs qilindi. Matbuot sahifalarida ko‘tarilgan ijtimoiy illatlar, jaholat mavzusi dramalarda ham qalamga olindi. O‘zbek jadid dramaturgiyasini maxsus tadqiq etgan olim Sh.Rizayev shakllanish bosqichida o‘nlab dramatik asarlar yaratilganini aniqlaydi va ularning taxminiylar ro‘yxatini keltiradi.⁸ Bizgacha yetib kelgan ayrim ilk dramalarning mavzu va mundarijasiga ko‘ra, qolaversa, tadqiqotimiz talabidan kelib chiqqan holda uch guruhga tasnifladik:

1. Ma‘rifatli shaxs - yozuvchi estetik idealini belgilagan dramalar.
2. Yozuvchi estetik ideali maishiy turmush va qahramonlar fojeasi fonida ifodalangan dramalar.
3. Ijodkorning ijtimoiy, estetik, axloqiy ideali kulgi vositasida anglashiladigan dramalar.

Ilk o‘zbek jadid dramasi sifatida e‘tirof etilgan “Padarkush” asaridagi ilm targ‘ibi Behbudiy publisistikasida ham parallel ravishda qalamga olindi. Ular orasida “A‘molimiz

⁸ Ризаев Ш. Жадид драмасы. - Т.: Шарк, 1997. - Б.129.



yoinki murodimiz” maqolasi alohida ahamiyatga ega. Muallif kecha-kunduz mehnat va mashaqqatning boisi kelajakni ta’minlamoq ekani, buning uchun tinimsiz harakat lozimligini uqtiradi. Lekin bu yo’ldagi sa’y-harakat qaysi maqsadga xizmat qilmoqda? Yigirma yillab zahmat chekib topilgan mol-davlat uch kunlik to’y uchun sarf qilinayotgani adolatdanmi? Qarz olib xalqqa osh berish evaziga umrbod qarzдорlik tamg’asini yelkasiga osib yashash qaysi sog’lom jamiyatga xos? Isrof etilayotgan aqchalar millat bolalariga, yanayam aniqroq aytganda, “zamonaviy kishilar”ni yetishtirmoqqa berilsa bo’lmasmi? Bu kabi savollar jamiyat rivojiga to’siq bo’layotgan illatlarga muolaja izlayotgan millatparvar adib iztiroblarining hosilasi edi. “Padarkush” dramasida Behbudiyning bu qarashlari Ziyoli nutqida aks etgan. Asarda Ziyoli boyni dunyo o’zgarishlaridan ogoh etib, “Olimi zamoniy bo’lmoq uchun bolalarni, avvalo, musulmoniy xat va savodini chiqarib, zaruriyati diniya va o’z millatimiz tilini bilaturg’ondan so’ngra hukumatimizning nizomli maktablariga bermoq kerakdur...Peterburg, Maskov dorilfununlariga yuborib, dokturlik, zakunchilik, injenerlik, sudyalik, ilmi san’at, ilmi iqtisod, ilmi hikmat, muallimlik va boshqa ilmlarni o’qitmoq lozimdir”,⁹ desa, muallif yuqorida nomi keltirilgan maqolasida esa “talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg’a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig’a yuborilub diniy va dunyoviy va zamonaviy odamlar yetishdurmoqg’a sa’y qilinsun”,¹⁰ - deb aynan Ziyoli fikrlarini qaytaradi. Demak, ilk jadid dramalarida ziyoli obrazi - jadidlarning ideali darajasiga ko’tarildi. Millat dardiga davo izlovchi bunday kishilarning tipik obrazi jamiyatni isloh qilishga qodir kuchga aylandi. Negaki, millat ziyolilari faqat katta fidoyilik evazigagina ko’zlangan maqsadga erishish mumkinligini anglab yetgan edilar.

Behbudiyning maqolasida “tarbiyatxonalarni ochmoq uchun va hukumat maktablarig’a bola tayyor qilmoq uchun nashri maorif yoinki jamiyati xayriya va yoinki tarbiyati atfol jamiyati va yo ism ila, xulosa, jamiyatlar kerakdur”, degan xulosaga keladi. Nomlari sanab o’tilgan jamiyatlar amalda millat bolalarini o’qitish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash natijasida yurt istiqbolini ta’minlash masalasini dasturul amal qilib belgilagan edi.

Birinchidan, muallif hukumat maktablariga bola tayyor qilmoq deganda zohiran ushbu maktablarga qarshi emasligini izhor qilgan bo’lsa ham, botinan dushmanni o’z quroli bilan mahv etish g’oyasini ko’taradi. Ya’ni zamonaviy bilimlarni mukammal egallash natijasida hukumat idoralarini o’qimishli, ziyoli, asosiysi milliy kadrlar bilan ta’minlashga erishish kerak. Ikkinchidan, rus-tuzem maktablarida yosh avlodga singdirilayotgan g’oya nimalardan iborat va u yurt ravnaqiga hissa qo’shadimi yoki aksinchami? Mana shu masalalar haqiqatini topish uchun ham chet tillarni, ayniqsa, rus tilini o’qish, o’rganish lozimligi kechiktirilmaydigan vazifa sifatida kun tartibiga qo’yilgan edi. Ushbu maqolada Behbudiyning istiqloлга ishora qiladigan biron bir jumlasini ko’zga tashlanmaydi. Aftidan, buning sababini jadidchilik harakatining hali ma’rifatchilik bosqichida ekanligi bilan izohlash mumkin. Jadid ziyolilarining tarixiy-ijtimoiy voqealar natijasida dunyoqarashida, ruhiyatida sodir bo’lgan o’zgarishlar islohotchilik g’oyalaridan erkinlik, moddiy va

⁹ Бехбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. - Т.: Маънавият, 2006. - Б.45.
¹⁰ Ўша манба. - Б. 160.





ma'naviy barkamollikka erishish, mukammal jamiyat qurish, huquqiy tenglikka asoslangan fuqaroviy davlat barpo etishdek yuksak ijtimoiy-estetik ideallar tomon o'sib bordi.

Har bir asar, u badiiy ijod turiga mansubmi, publisistik yoki ilmiymi qat'i nazar, muallif ichki "men"i, voqea-hodisalarga yoki kishilarga individual munosabati o'z ifodasini topgan bo'ladi. Ijodkor o'z dunyoqarashi, ong va ong osti zahirasiidagi tushunchalardan yuqori darajada yoza olmaydi. Ko'rgan-kechirganlari, o'rganganlari yoxud faoliyatiga ta'sir ko'rsatgan holatlar natijasida ma'lum bir munosabat shakllanadi. Sub'yektning o'rganilayotgan ob'yektga munosabatida mohiyatga qarab ijobiy yoki salbiy yondashuv yuzaga keladi. Uni qoniqtirmayotgan voqeliklar, jamiyat va inson borlig'iga nisbatan nafrat asarlarda fojeaviy yoki hajv yo'li bilan ifodalanishi mumkin. O'tgan asrning boshlarida yaratilgan asarlarning aksariyatida mana shu jihatni kuzatish mumkin. Lekin asarlar tagmatnida faqatgina nafrat hissi ustunlik qiladi, desak xato bo'ladi. Hajviy qahramonlar muallif yoki boshqa obrazlar nutqi orqali emas, o'z- o'zini fosh etish yo'li bilan yuqoridagi savolning javobiga bir qadar oydinlik kiritadi. "Padarkush"dagi boyning "xambozasini ko'rib xalq beto'xtov kulishi"ning sababi ham shunda. Bu obrazning ziddi(antipodi) hisoblangan Domulla va Ziyoli obrazlarining fikri bir nuqtada tutashib, yozuvchining ideali - zamona odamlarini tarbiyalash va millat ravnaqi yo'lida xizmat ettirishdek ulkan g'oyani tashkil etadi. Shuningdek, Behbudiy savdo erkinligi masalasini ham ko'taradi. Aynan shar'iy bilimlarni chuqur egallagan Domulla ilmsizlik natijasida savdo ishlari ham armani, yahudiy, ajnabiylar qo'liga o'tib ketganidan afsuslanib, boyni ogohlikka da'vat etadi. Buni Ziyoli ham ta'kidlab «...ilmi tijorat, ilmi iqtisod va boshqa ilmlarni o'qutmoq lozumdir» deydi. Demak, jamiyatda har tomonlama yetuklikka erishish uchun avvalo bilimli, ma'rifatli yoshlarni tarbiyalash kerak. Behbudiy Ziyoli va Domullaning nutqini asoslash uchun beilmlikning o'ta salbiy oqibatini tasvirlaydiki, u tomoshobinga albatta ta'sir ko'rsatishi tabiiy edi. Ta'sirning kuchi nafaqat tomoshobin balki, jadid ijodkorlarni ham to'liqlantirdi. Ma'rifat ular intilgan eng yuksak maqsad - ideal darajasiga aylandi.

«Padarkush» boshlab bergan ma'rifat g'oyasi ta'sirida o'nlab dramatik asarlar yaratildi va sahnalashtirildi. Birinchidan, 1911-yilda yozilib, 1913-yilda Samarqandda sahnalashtirilgan ilk dramatik asar oz fursatda butun Turkistonga yoyildi. Jaholat tanqidi, ilm targ'ibi aks etgan ushbu drama nafaqat ziyolilar, balki butun xalq ruhiyatiga ta'sir ko'rsatdi. Garchi Behbudiy asar sahnalashtirilayotganda muallifdan ruxsat olishi shartligini uqtirgan bo'lsa-da, asarning turli joylarda qayta-qayta o'ynalgani haqidagi ma'lumotlar yangilikka tashnalikning o'ta kuchliligidan darak beradi. Ikkinchidan, drama ta'sirida Abdulla Qodiriy, Hoji Muin, Hamza singari adiblar yangi janrga qo'l urib, ijodiy imkoniyatlarini sinab ko'ra boshladilar. Shunday qilib, jadid dramasi shakllanish bosqichiga kirdi.

Xulosa qilib aytganda, "Padarkush" yaratilgan davrdan to 1917-yilgacha o'zbek dramaturgiyasi shakllanish bosqichini boshdan kechirdi. Bu bosqichda mualliflarning estetik ideali zamon va jamiyat ehtiyojiga qarab o'zgarib, barqarorlashib bordi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Behbudiy. Tanlangan asarlar. Tuzatilgan va to'ldirilgan 3-nashri. - T.: Ma'naviyat, 2006. - 280 b.
 2. Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Ilmiy-tadqiqiy maqolalar. - T.: Milliy kutubxona, 2007. - 286 b.
 3. Jalolov A. XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zbek adabiyoti. - T.: Fan, 1978. - 155 b.
 4. Jalolov A. O'zganboyev X. O'zbek ma'rifatparvarlik adabiyotining taraqqiyotida vaqtli matbuotning o'rni. - T.: Fan, 1993. - 115 b.
 5. Jo'raqulov U Fitratning tadqiqotchilik mahorati. - T.: Universitet,
 6. Jo'raqulov U Hududsiz jilva. - T.: Fan, 2006. - 204 b.
 7. Karimov B. Jadid munaqqidi Vadud Mahmud. - T.:Universitet, 2000. - 104 b.
 8. Qosimov B. Salom, kelajak. - T.: Adabiyot va san'at, 1986. - 280 b.
- 9.Бехбудий. Танланган асарлар. Тузатилган ва тўлдирилган 3-нашри. - Т.: Маънавият, 2006. - Б.45.